



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI K E N G A S H I

Samarqand t. 140300, Gulobod qo'rg'oni, 1-uy. Tel: (66) 612-51-89

2022 - yil 7 - may

VI-60-83-7-103-K/22

Samarqand tuman hokimligi

Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri Sh.Voseyevning "2022 yilning 1-choragi bo'yicha tuman mahalliy budjet parametrlarining ijrosi hamda tuman mahalliy budjet daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi hisoboti haqida

2022 yilning I chorak davomida tuman mahalliy budjetini sifatli qilib ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar olib borilgan.

Natijada, tuman mahalliy budjetining daromadlar qismi prognozlarini 117,4 foizga ijro etilib, prognoz-rejada ko'zda tutilgan 17875,1 mln. so'm o'rniga, haqiqatda 20993,1 mln. so'm daromad tushirildi yoki prognoz rejaga nisbatan 3118,0 mln. so'mlik qo'shimcha mablag' tushirilishi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi "Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qarori ijrosi yuzasidan tuman moliya bo'limi va Davlat soliq inspeksiyasi hamda aloqador tashkilotlar bilan hamkorlikda qator amaliy ishlar amalga oshirildi.

Xususan, soliq to'lovchilarni joyiga chiqib o'rganish hamda soliq bazasidagi ma'lumotlar bilan tahlil qilish va solishtirish orqali qo'shimcha daromad bazasini aniqlash, ularni qamrab olish ishlarini olib borilishi natijasida 2022 yil 1-chorak davomida jami 1796 ta holatda budjetga yil oxirigacha 1 365,3 mln. so'mlik qo'shimcha daromad manbasi aniqlandi.

Shu davrdagi tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismi 82,6 foizga ijro etilib, 53 mlrd. 381 mln. 143 ming so'mni tashkil etib, ushbu mablag'larning 51,9 foizi yoki 27 mlrd. 717 mln. 628 ming so'mi ijtimoiy soha xarajatlar hissasiga

to'g'ri keladi.

Budjet xarajatlarini tarmoqlar kesimida ko'rib chiqqanda ta'lim sohasi xarajatlari 2 mlrd. 23 mln. 812 ming so'mni tashkil etishini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini saqlash uchun tuman mahalliy budjetida ko'zda tutilgan 5 mlrd. 610 mln. 40 ming so'mlik mablag'lar o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilib kelinmoqda.

Sog'liqni saqlash muassasalarini saqlash uchun tuman mahalliy budjetida ko'zda tutilgan 18 mlrd. 431 mln. 37 ming so'mlik mablag'lar o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilib kelinmoqda.

Bundan tashqari ushbu davrda tuman hokimligining zaxira mablag'lari hisobidan tumanning kommunikatsiya va obodonlashtirish ishlariga, kam ta'minlangan oilalarni moddiy tomondan qo'llab-quvvatlash hamda gematologiya kasalligiga chalingan fuqarolarga dori-darmonlari uchun 161 mln. 121 ming so'm mablag'lar yo'naltirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq oltmishinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri Sh.Voseyevning "Tuman mahalliy budjet parametrlarining 2022-yil I chorak ijrosi to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.G'aniyev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (F.Nizomov) va tuman hokimligi Moliya bo'limi (Sh.Voseyev)ga 2022 yilning qolgan davrida mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirish tavsiya etilsin:

-2022-yilning 2-chorak mahalliy budjet daromadlarini barcha manbalar hamda hududlar bo'yicha to'liq va o'z vaqtida tushumini ta'minlash;

- mahalliy budjetga hisoblangan soliqlarning barcha turlari bo'yicha boqimanda qarzdorliklarni kamaytirish choralarini ko'rish;

-mahalliy budjetdan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, ijtimoiy nafaqalarni va pensiya to'lovlarini to'liq va o'z muddatida amalga oshirilishini

ta'minlash, ularning tijorat banklari tomonidan naqd pul hamda plastik kartochkalar bilan ta'minlanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

- budjetdan mablag' oluvchi muassasalar tomonidan ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, kreditor qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

- budjet va budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilayotgan mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, kreditor qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish, bunda asosiy e'tiborni Davlat dasturlar bilan belgilangan tadbirlarga ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish;

-"Obod qishloq" dasturiga kiritilgan obyektlarda olib borilayotgan qurilish, obodonlashtirish ishlarini nazoratga olish, mahalliy budjet hisobidan ajratilishi lozim bo'lgan mablag'lar manbayini topish bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

-Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlarda qurilish ta'mirlash ishlarini belgilangan muddatlarda va sifatli qilib yakunlash ustidan nazoratni kuchaytirish;

2022-2023-yillar kuz-qish davrida ijtimoiy soha muassasalarini barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash va ajratilgan budjet va budjetdan tashqari mablag'larning manzilliligini va samaradorligini oshirish maqsadida, mablag'larni muassasalar holatini joyiga chiqib o'rgangan holda, puxta tayyorlangan manzilli dasturlar asosida birinchi navbatda ta'mirtalab muassasalarga va eng zarur tadbirlarga yo'naltirish, ijtimoiy soha muassasalariga zamonaviy texnologik talablarga javob beradigan, energotejamkor hamda gaz va ko'mir yoqilg'isiga moslashtirilgan isitish qozonlarini xarid qilinishi, ko'mir va briket yoqilg'isi zaxirasini sifatli saqlanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish so'raladi.

3.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (B.Xusanov) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.Ganiyev)lar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



A.Umarov